



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOIIY VA IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Islomov Javohir Iskandar o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Urgut filiali, Biznensi boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti

Buxgalteriya hisobi yo'nalishi 214-guruh talabasi

Email: islomovjavohir939@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada raqamli iqtisodiyotning O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasiga ta'siri, gig-iqtisodiyot va masofaviy bandlik, raqamli ta'lim va malaka oshirish, shuningdek elektron hukumat va raqamli infratuzilmaning samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotlar raqamli sektorning YaIMdagi ulushi ortib borayotganini, yangi ish o'rinlari yaratilishini, ishchi kuchining fleksibil va inklyuziv bo'lishini, shuningdek mamlakat eksport salohiyatining oshirishini ko'rsatadi. Maqolada shuningdek raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, innovatsiyalar va startaplarni rivojlantirishdagi roli, davlat boshqaruvida samarali mexanizmlar yaratish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari raqamli infratuzilmani rivojlantirish, gig-iqtisodiyot va masofaviy bandlikni qo'llab-quvvatlash, raqamli ta'limni kengaytirish va elektron hukumat tizimini yaxshilash orqali mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, gig-iqtisodiyot, masofaviy bandlik, raqamli ta'lim, malaka oshirish, elektron hukumat, raqamli infratuzilma, YaIM, innovatsiyalar, startaplar, eksport salohiyati, inklyuziya.

Аннотация. В статье рассматривается влияние цифровой экономики на экономику и социальную сферу Узбекистана, развитие гига-экономики и удалённой занятости, цифровое образование и повышение квалификации, а также эффективность электронного правительства и цифровой инфраструктуры. Исследование показывает рост доли цифрового сектора в ВВП, создание новых рабочих мест, гибкость и инклюзивность трудовых ресурсов, а также увеличение экспортного потенциала страны. В статье также освещается роль цифровой экономики в снижении социального неравенства, развитии инноваций и стартапов, а также в создании эффективных механизмов государственного управления. Результаты исследования демонстрируют, что развитие цифровой инфраструктуры, поддержка гига-экономики и удалённой занятости, расширение цифрового образования и совершенствование системы электронного правительства способствуют устойчивому социально-экономическому развитию Узбекистана.

Ключевые слова: Цифровая экономика, гига-экономика, удалённая занятость, цифровое образование, повышение квалификации, электронное правительство,



цифровая инфраструктура, ВВП, инновации, стартапы, экспортный потенциал, инклюзия.

Abstract. *The article analyzes the impact of the digital economy on Uzbekistan's economic and social spheres, the development of the gig economy and remote employment, digital education and skills enhancement, as well as the effectiveness of e-government and digital infrastructure. The study demonstrates the increasing share of the digital sector in GDP, creation of new jobs, flexibility and inclusivity of the workforce, and enhancement of the country's export potential. The article also highlights the role of the digital economy in reducing social inequality, promoting innovation and startups, and establishing efficient governance mechanisms. Research results indicate that developing digital infrastructure, supporting gig economy and remote employment, expanding digital education, and improving e-government services contribute to sustainable socio-economic development in Uzbekistan.*

Key words: *Digital economy, gig economy, remote employment, digital education, skills enhancement, e-government, digital infrastructure, GDP, innovations, startups, export potential, inclusion.*

KIRISH

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda iqtisodiy faoliyatning eng zamonaviy ko'rinishlaridan biri hisoblanib, unda raqamli texnologiyalar, internet tarmoqlari hamda elektron tizimlar yetakchi o'rin egallaydi. Axborot texnologiyalarining tez sur'atlar bilan rivojlanishi va internet tarmog'ining keng ommalashuvi natijasida iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida tub o'zgarishlar yuz bermoqda. An'anaviy iqtisodiy jarayonlar raqamli yechimlar asosida avtomatlashtirilmoqda hamda optimallashtirilmoqda, bu esa ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shu bois raqamli iqtisodiyotning muhim ustunliklari sifatida tezkorlik, yuqori samaradorlik, resurslardan oqilona foydalanish hamda innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishini ko'rsatish mumkin. Raqamli iqtisodiyotning izchil rivojlanishi mehnat bozorida ham muhim o'zgarishlarga olib kelmoqda. Yangi turdagi ish o'rinlari vujudga kelib, mavjud kasblar zamonaviy talablar asosida transformatsiyalanmoqda. Ayniqsa, startup loyihalar va kichik biznes subyektlari uchun raqamli platformalar katta imkoniyatlar yaratmoqda. Ular orqali biznesni tashkil etish, boshqarish va reklama qilish jarayoni ancha soddalashmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot umumiy iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Jahon miqyosida onlayn xizmatlar va raqamli texnologiyalarning kengayib borishi yangi bozorlarning shakllanishiga, mavjud bozorlarning esa yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda ham elektron hukumat tizimini joriy etish hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanmoqda. Xususan, elektron hujjat aylanishini kengaytirish, davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tkazish muhim vazifalardan sanaladi. Ushbu jarayonlarni samarali amalga oshirishda telekommunikatsiya





infratuzilmasining ahamiyati beqiyosdir. “Raqamlashtirish” tushunchasi nisbatan yangi atama bo‘lib, u boshqaruv va ish yuritish tizimlariga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etishni anglatadi. Raqamlashtirish jarayoni natijasida internet buyumlaridan tortib elektron hukumat tizimigacha bo‘lgan barcha yo‘nalishlarda axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi yanada kengaymoqda. Bu esa iqtisodiyotda ochiqlik, shaffoflik va samaradorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

“Raqamli iqtisodiyot” atamasi nisbatan yaqinda, aniqrog‘i 1995-yilda Massachusetts universiteti olimi Nikolas Negroponte tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida an’anaviy iqtisodiyotdan yangi iqtisodiy modelga o‘tish jarayonida qanday tub o‘zgarishlar yuz berishini ilmiy asosda izohlagan. Olimning fikricha, raqamli texnologiyalar iqtisodiy munosabatlarning mazmuni va shakliga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Raqamli iqtisodiyot xo‘jalik yuritishning zamonaviy shakli bo‘lib, bunda ishlab chiqarish va xizmatlar ko‘rsatishda asosiy resurs sifatida raqamli ko‘rinishdagi axborotlar maydonga chiqadi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va ularni tahlil qilish orqali ishlab chiqarishda, xizmatlar ko‘rsatishda, texnologik uskunalarni saqlashda hamda mahsulotlarni yetkazib berishda an’anaviy tizimlarga nisbatan ancha samarali yechimlar joriy etiladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot onlayn xizmatlar, elektron to‘lov tizimlari, internet savdo, kraudfanding hamda boshqa ko‘plab raqamli yo‘nalishlarning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan iqtisodiy faoliyat turidir. Texnologik jihatdan shakllangan raqamli muhit yuridik va jismoniy shaxslar o‘rtasida mutlaqo yangi turdagi o‘zaro aloqalarni yo‘lga qo‘yuvchi makon vazifasini bajaradi. Axborot texnologiyalarining joriy etilishi natijasida korxonalar faoliyat sur’atlarini keskin oshirish, mahsulot va xizmatlar turlarini yanada kengaytirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, tadqiqotchilar bozor uchun tez yangilanadigan va qisqa muddatli mahsulotlarning paydo bo‘lishi ham raqamli muhitning muhim xususiyatlaridan biri ekanligini ta’kidlamokda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Rahimov A. o‘z maqolasida raqamli iqtisodiyot orqali ijtimoiy sohalarni rivojlantirishning bir nechta usullarini sanab o‘tadi, jumladan ma’lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilishda Big Data (katta hajmdagi ma’lumotlar) texnologiyalarining o‘rni tobora ortib borayotganini ta’kidlaydi. Sanoat korxonalari ushbu texnologiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlari va bozor holatiga oid katta hajmdagi axborotlarni to‘plash, ularni chuqur tahlil qilish hamda natijada tezkor va aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi va shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi resurslardan samarali foydalanishni ta’minlab, ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli darajada optimallashtirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yetkazib berish zanjirlarini raqamli platformalar asosida boshqarish global va mahalliy miqyosda logistika jarayonlarini yanada samarali tashkil etish imkonini beradi va bu esa o‘z navbatida mahsulotlarni iste’molchilarga tezroq, qulayroq va kamroq xarajat evaziga yetkazib berishga zamin yaratadi deya aytib o‘tadi.



Yerjanov Sh. o'z ilmiy izlanishlarida raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy tadbirkorlikka bo'lgan ta'siri haqida aytib o'tadi. Uning aytishicha, Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining barqaror faoliyat yuritishi uchun raqamli infratuzilma, elektron hujjat aylanishi, onlayn soliq hisobotlari, raqamli identifikatsiya kabi vositalar muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining asosiy maqsadi ijtimoiy muammolarni iqtisodiy mexanizmlar yordamida hal qilishdan iborat. Shu sababli, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Raqamli boshqaruvning joriy etilishi natijasida ijtimoiy tadbirkorlik subyektlarining soliq to'lovlari, moliyaviy hisobotlari va yillik balanslarini onlayn ravishda taqdim etish imkoniyati mavjud bo'lmoqda. Bu esa soliq shaffofligini ta'minlabgina qolmay, noqonuniy faoliyatni bartaraf etish, davlat daromadlarining oshishiga ham xizmat qiladi. Aynan shu yerda muallif raqamli iqtisodiyotning davlat byudjetiga keltiradigan foydasi haqida aytib o'tgan.

Xo'jaeva Q. raqamli tengsizlikni bartaraf etish nafaqat texnologik, balki ijtimoiy va iqtisodiy masala sifatida ham qaraladi deydi. Bu muammoni hal etish uchun davlat, xususi sektor, nodavlat tashkilotlar va jamoatchilikning birgalikdagi sa'y-harakatlari zarurligini ta'kidlab o'tar ekan raqamli inklyuziya jamiyatning barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yaratib, ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xizmat qilishini, shu bilan birga, raqamli tengsizlikni kamaytirish global miqyosda ham muhim ahamiyat kasb etishini aytib o'tadi. Dunyo bo'ylab ko'plab davlatlar va tashkilotlar bu masalaga e'tibor qaratib, raqamli inklyuziya bo'yicha turli loyihalar va dasturlarni amalga oshirayotgan ekanliklarini, bu esa global barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil bo'lib hisoblanishini qo'shimcha qiladi muallif.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy izlanishni amalga oshirish jarayonida tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan bir qator ilmiy yondashuvlardan foydalanildi. Mavzuni chuqur o'rganish uchun umumiy tushunchalardan xususi holatlarga tushuvchi deduktiv tahlil hamda aksincha — alohida holatlardan umumiy xulosalarga olib boruvchi induktiv yondashuvlar tatbiq etildi. Jarayonlarni mazmunan tushunish va ularning ichki bog'liqligini aniqlashda abstrakt-mantiqiy fikrlash usuli muhim metod sifatida xizmat qildi. Tadqiqotning asosiy bosqichlarida kuzatish, faktlarni tahlil qilish, olingan natijalarni guruhlash va umumlashtirish, shuningdek, o'xshash va farqli jihatlarni aniqlashga yo'naltirilgan taqqoslash usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, ilmiy axborotni chuqur qayta ishlashda tahlil va sintez metodlari qo'llanilib, mavzu doirasidagi nazariy va amaliy jihatlar o'zaro bog'liq holda baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda dolzarb bo'lgan raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirini bir nechta statistik ma'lumotlarga asosan tahlil qilsak. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamlashtirish jarayoni iqtisodiy o'sishning ekstensiv modelidan intensiv (bilimga asoslangan) modeliga o'tishni tezlashtiruvchi asosiy omilga aylangan.





O'zbekistonning Yalpi Ichki Mahsulotidagi (YaIM) ulushi yildan-yilga sezilarli darajada oshib bormoqda. An'anaviy iqtisodiyotda o'sish ko'pincha moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va xomashyo sarfiga bog'liq bo'lsa, raqamli iqtisodiyotda o'sish ko'proq xizmatlar, intellektual mulk va innovatsion yechimlar hisobiga amalga oshmoqda. Bunda inson kapitali va ma'lumotlar tahlili asosiy resurs sifatida ishlatiladi, bu esa iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. **Raqamli sektor ulushi:** O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasining YaIMdagi ulushi 2020-yilda 1,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 3,5–4 foizga yetdi. Bu o'sish raqamli xizmatlar va IT-texnologiyalar sohasidagi faoliyatning mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan hissasining ortib borayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bu raqamlar raqamli sektorning YaIMga ta'siri hali ham an'anaviy ishlab chiqarish sohalariga nisbatan tezroq o'sayotganini tasdiqlaydi.

Eksport salohiyati: "IT Park" rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar eksporti sohasida ham sezilarli o'sish kuzatildi. 2024-yilda IT-xizmatlar eksporti qiymati taxminan 1 milliard AQSh dollariga yetdi. Bu ko'rsatkich mamlakatning xomashyo eksportiga bo'lgan bog'liqligini kamaytirishda muhim mexanizm sifatida xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, IT-xizmatlar eksportining o'sishi raqamli iqtisodiyotning global bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish va mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyotga kiritilgan har bir birlik investitsiya an'anaviy sohalarga (masalan, qurilish yoki qishloq xo'jaligi) kiritilgan investitsiyalarga nisbatan 3–4 barobar yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga imkon bermoqda. Bu iqtisodiy jarayonlarning samaradorlik koeffitsiyenti ortayotganini, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy o'sish, eksport salohiyati va ish o'rinlarini yaratish borasida kuchli vosita ekanini tasdiqlaydi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion yechimlar, startap loyihalari va elektron xizmatlar jadal rivojlanmoqda. Bu jarayonlar iqtisodiyotning turli sektorlarida ish samaradorligini oshirish, xizmat ko'rsatish tezligini kuchaytirish va moliyaviy xarajatlarni optimallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotga investitsiya jalb qilish mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasida muhim o'rin tutadi. Raqamli platformalarning rivojlanishi, jumladan freelance birjalari va marketplace'lar, an'anaviy ish joylari yetishmovchiligini yumshatuvchi bufer vazifasini o'tayotganini ko'rsatmoqda. Gig-iqtisodiyot sharoitida shaxslar o'zlariga mos qisqa muddatli loyihalarda ishtirok etib, daromad topish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil boshiga kelib, O'zbekistonda o'zini o'zi band qilgan shaxslar soni 3,5 milliondan oshdi. Shu kadrlarning taxminan 25 foizi raqamli xizmatlar orqali daromad olmoqda. Ushbu xizmatlar qatoriga dasturlash, dizayn, onlayn savdo va taksi agregatorlari kiradi. Bu ko'rsatkich gig-iqtisodiyotning mamlakat mehnat bozoridagi o'sib borayotgan rolini aniq ko'rsatadi. Ijtimoiy jihatdan, gig-iqtisodiyot ayniqsa ayollar va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun uydin chiqmasdan daromad topish





imkoniyatini yaratdi. Natijada, bu mexanizm inklyuziv iqtisodiy o'sishga xizmat qilmoqda, ya'ni jamiyatning barcha qatlamlarini iqtisodiy faollikka jalb qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, masofaviy bandlik raqamli platformalar yordamida ishchi kuchining samaradorligini oshirishga va mamlakat iqtisodiyotiga qo'shilgan qiymatni ko'paytirishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning raqamli savodxonligi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Masalan, "Bir million o'zbek dasturchisi" kabi yirik loyihalar natijasida yoshlar malakasi oshdi va ular yuqori texnologiyali ish o'rinlarida faoliyat yuritishga tayyor bo'lishdi.

Hududlarda internet tezligining oshishi va IT-markazlarning faoliyat boshlashi bilan yoshlar o'rtasidagi ishsizlik darajasi o'rtasida teskari bog'liqlik kuzatilgan. Ya'ni, raqamli infratuzilma qanchalik rivojlanadi, yoshlar o'rtasidagi ishsizlik shunchalik kamayadi. Ushbu korrelyatsion tahlil raqamli ta'lim va malaka oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi, chunki malakali yoshlar nafaqat yuqori daromadli ish o'rinlariga ega bo'lishadi, balki iqtisodiy o'sishga ham bevosita hissa qo'shadilar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarning raqamlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. "Elektron hukumat" tizimi nafaqat fuqarolar uchun xizmatlarni tez va qulay olish imkoniyatini yaratadi, balki iqtisodiy tejamkorlik va korrupsiyaga qarshi samarali mexanizm sifatida ham namoyon bo'ladi. Elektron hukumat orqali davlat xizmatlari: soliqlarni to'lash, hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish, ijtimoiy nafaqalarni olish kabi jarayonlar avtomatlashtiriladi. Bu nafaqat xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi, balki inson omiliga bog'liq xatolik va korrupsion xavflarni kamaytiradi. Shu tariqa, davlat boshqaruvidagi raqamli mexanizmlar ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, resurslardan samarali foydalanish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni rivojlantirish nafaqat mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirishga, balki aholi turmush darajasini yaxshilash va ish bilan bandlikni ta'minlashga ham xizmat qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli sektor ulushi yildan-yilga oshib, YaIMdagi hissasi sezilarli darajada ko'paymoqda. Shu bilan birga, gig-iqtisodiyot va masofaviy bandlik mexanizmlari ishchi kuchining fleksibil va inklyuziv bo'lishiga yordam beradi, raqamli ta'lim va malaka oshirish loyihalari esa yoshlarning bozor talablariga moslashishini ta'minlaydi. Davlat boshqaruvidagi raqamli mexanizmlar, xususan, elektron hukumat tizimi korrupsiyaga qarshi kurashishda samarali vosita bo'lib, xizmatlarning tez va shaffof yetkazilishini ta'minlaydi. Shu tariqa, raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va eksport salohiyatini kengaytirish borasida muhim natijalar bermiqda.

Takliflar:

1. Raqamli infratuzilmani yanada rivojlantirish va internet tezligini oshirish orqali yoshlar va ishchi kuchining raqamli savodxonligini kengaytirish lozim.
2. Gig-iqtisodiyot va masofaviy bandlikni rag'batlantirish uchun platformalarni qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlarini joriy etish zarur.



3. Davlat boshqaruvidagi raqamli tizimlar, jumladan elektron hukumat xizmatlari, yanada kengaytirilishi va barcha hududlarda bir xildagi sifatni ta'minlashi kerak.

4. Kichik va o'rta biznesni raqamli platformalarga integratsiya qilish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar va investitsiya dasturlarini kuchaytirish tavsiya etiladi.

5. Innovatsiyalar va startap loyihalarini rivojlantirish, IT-parklar va inkubatorlar faoliyatini kengaytirish orqali yangi ish o'rinlari yaratish va iqtisodiy diversifikatsiyani oshirish muhimdir.

Natijada, raqamli iqtisodiyotning to'liq imkoniyatlaridan foydalanish orqali O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi barqaror va jadal sur'atlarda amalga oshirilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida (PF-6079-sonli Farmon). O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

2. Normuroda, S. ., & Asadova, S. . (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOIIY VA IQTISODIY JARAYONLARNI RIVOJLANTIRISHNING USULLARI. *Наука и технология в современном мире*, 3(14), 25–29. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zdift/article/view/62955>

3. Raximov , A. N. (2024). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOAT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 43–48. Retrieved from <https://sjii.es/index.php/journal/article/view/68>

4. Kabil o'g'li, Y. S. (2025). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IJTIMOIIY TADBIRKORLIK VA SOLIQ BOSHQARUVI. *IZLANUVCHI*, 1(9), 147-150.

5. Xo'jaeva Qizlargul Karimboevna. (2025). RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA FAN VA JAMIYAT RIVOJLANISHINING DOLZARB JIHATLARI. *World Scientific Research Journal*, 39(2), 153–157. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/wsrj/article/view/93148>

6. Alimov, N. I. (2022). Fintech va Raqamli Iqtisodiyotning Moliya Sektoriga Ta'siri. *Iqtisodiyot va Moliya Jurnali*, (4), 85–97.

7. To'laganov, A. T. (2023). Raqamli iqtisodiyot: Tushunchalar, mexanizmlar va rivojlanish yo'llari. Fan nashriyoti.

8. Usmanova, Z. (2024). Hududiy rivojlanishda raqamli infratuzilmaning ahamiyati: Qiyosiy tahlil. Toshkent: Ijtimoiy Tadqiqotlar Markazi.

9. Statistika agentligi. (2025). O'zbekiston Respublikasining 2024-2025 yillardagi Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish hisoboti. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi.